

USMONIYLAR IMPERIYASIDA ISLOHOTLAR HARAKATI: TANZIMAT VA UNING MUVAFFAQIYATSIZLIK SABABLARI

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

Tarix 3-bosqich talabasi

Fayzullajonova Ruhshona Mansur qizi

ruxshonafayzullajonova@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Tanzimat islohotlari davrida Usmoniylar imperiyasida amalga oshirilgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar keng yoritilgan. Shuningdek, islohotlarning imperiya mustaqilligi va G'arb davlatlari bilan bo'lgan munosabatlarga ta'siri tahlil etilgan. Tanzimat davrining ijobiy va salbiy jihatlari, uning keyingi turk modernizatsiyasiga ta'siri ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Tanzimat, Usmoniylar imperiyasi, Abdulmajid, islohot, G'arb kapitali, mustamlaka, modernizatsiya.

Аннотация

В данной статье подробно освещены политические, экономические и социальные изменения, проведённые в Османской империи в период реформ Танзимата. Также проанализировано влияние реформ на независимость империи и её отношения с западными державами. Раскрыты положительные и отрицательные стороны эпохи Танзимата, а также её влияние на последующую турецкую модернизацию.

Ключевые слова: Танзимат, Османская империя, Абдулмеджид, реформа, западный капитал, колониализм, модернизация.

Annotation

This article explores the Tanzimat reforms implemented in the Ottoman Empire during the 19th century, analyzing their political, economic, and social impact. It also examines the influence of these reforms on the empire's independence and its relations with Western powers, highlighting both the positive and negative outcomes and their role in shaping later Turkish modernization.

Keywords: Tanzimat, Ottoman Empire, Abdulmejid, reform, Western capital, colonialism, modernization.

XIX asrning birinchi yarmida Usmoniylar imperiyasi siyosiy va iqtisodiy jihatdan keskin inqiroz davrini boshdan kechirdi. Ichki boshqaruvdagi sustkashlik, iqtisodiy qaramlik, harbiy tizimning zaiflashuvi hamda milliy ozodlik harakatlarining kuchayishi imperiyani yemiruvchi omillar edi. Ayniqsa, G'arb davlatlari Angliya va Fransiyaning iqtisodiy ekspansiyasi natijasida Turkiya o'z mustaqilligini tobora

yo'qotib bordi. Ana shunday og'ir vaziyatda davlatni yemirilishdan saqlab qolish uchun islohotlar o'tkazish zarurati tug'ildi. Bu jarayon tarixda Tanzimat (arabcha "tartibga solish", "isloh qilish") nomi bilan ma'lum bo'ldi. 1839-yilga kelib, Usmoniylar imperiyasi ichki siyosiy inqiroz va tashqi bosim ostida qoldi. Misr hukmdori Muhammad Ali poshoning mustaqillikka intilishi, G'arb davlatlarining Turkiya ichki ishlariga aralashuvi, iqtisodiy tanglik va xalq noroziligi hukm surgan bir paytda sulton Abdulmajid taxtga chiqdi¹. Uning davrida Mustafo Rashid posho tomonidan tayyorlangan islohotlar dasturi 1839-yil 3-noyabr kuni sulton saroyining Gulxona deb atalmish bog'ida, vazirlar, ulamolar, diplomatik korpus vakillari, shuningdek, musulmon bo'lmagan diniy jamoalar boshliqlari guvohligida o'zi tayyorlagan hujjatni e'lon qildi².

Gulxona xatti-sharifida ta'kidlanadiki, "so'nggi bir yuz ellik yil ichida turli voqealar va har xil sabablar shunga olib keldiki, muqaddas qonunlar va ulardan kelib chiqadigan qoidalar avvalgidek qo'llanilmay qoldi, mamlakat qudrati va ichki farovonlik zaiflik va kuchsizlikka aylandi". Shu munosabat bilan memorandumda "yangi nizomlar o'rnatish yo'li bilan Usmoniylar imperiyasi tarkibiga kiruvchi viloyatlarga yaxshi boshqaruvning foydasini" ko'rsatishga va'da berildi. Yangi nizomlar o'rnatilishi asosan quyidagilardan iborat bo'lishi ko'zda tutildi:

- dini va millatidan qat'i nazar barcha fuqarolarning hayoti, mol-mulki va sha'ni davlat himoyasida bo'lishi;
- soliq tizimini tartibga solish va adolatli taqsimlash;
- harbiy xizmatni aniq muddatga belgilash va adolatli yo'l bilan amalga oshirish.

Tanzimatning ushbu dastlabki akti adliya, ma'muriy qurilish, maorif, moliya, harbiy va boshqa sohalardagi bir qator keyingi islohotlar uchun muqaddima bo'lib xizmat qildi. Ammo Tanzimat qoloq imperiyaning chuqur ichki va tashqi qiyinchiliklarini hal etmadi, hal etishi mumkin ham emasdi. Tanzimat mustahkam ijtimoiy tayanchga ega emasdi. Uni quvvatlagan pomeschchiklar turk feodal sinfining kichik qatlami edi xolos³. Bundan tashqari u ko'plab turk bo'lmagan millatlarning ham ehtiyojlarini qondira olmas edi. Tanzimat Turkiyaning mustaqil siyosat yuritish imkoniyatini ham mustahkamlamadi. Porta o'zining Muhammad Ali bilan ziddiyatini ham mustaqil hal qila olmadi. 1840-yil 15-iyulda Turkiyaning Londondagi elchisi Angliya, Rossiya, Avstriya va Prussiya vakillari bilan konvensiya imzoladi. Konvensiya ushbu davlatlarning "Usmoniylar imperiyasi bu butunligi va mustaqilligi ustidan" kuzatishini e'lon qildi, ya'ni Turkiyani bu to'rtta davlatga qaram holatga solib qo'ydi. Konvensiyaning asosiy mazmuni Muhammad Aliga ultimatum talablarini qo'yishdan iborat bo'lib, agar u ushbu talablarni qabul qilmasa, yuqoridagi davlatlar

¹ Kamilov E. Tanzimat davri islohotlari: ijtimoiy va iqtisodiy muammolar. — T.: Sharq, 2015. — 245-bet

² Шухрат Эргашев. Жахон тарихи: янги давр (1800–1918 йиллар). Тошкент: "Ўзбекистон", 2015.

³ Ахмедов И. Танзимот даври ва унинг маданияй-ма'рифий жихатлари. — Т.: Фан, 2021.

sultonga harbiy yordam ko'rsatishni aytilgan edi. Aslida konvensiya Turkiya manfaatlarini emas, G'arb davlatlarini, birinchi o'rinda Angliyani himoya qilardi. Inglizlar ushbu ayyorona diplomatik qadam bilan Fransiyaning voqealardan chetlashtirdi, Muhammad Ali qarshi kollektiv harbiy harakatlarga Nikolay I ning roziligini oldi, rus harbiy kemalari uchun bo'g'ozlar yopildi, Rossiya va Avstriya yordamida Misrning mustaqilligini tugatdi va O'rta Yer dengizining strategik yo'llarida o'zi o'rtnashib oldi. Turkiya masalasida Rossiya bilan Angliya siyosatining farqi shundan ediki, ruslar Turkiyaning Yevropa davlatlari o'rtasida bo'lib qolishi orqali Sharq muammosini hal qilmoqchi bo'lsalar, inglizlar bu masalani Turkiyani to'liq egallab olish orqali hal qilishni umid qilardilar⁴.

Muhammad Ali London ultimatumini qabul qilishdan bosh tortganidan so'ng 1840-yil kuzda Angliya-Avstriya birlashgan floti Bayrutni, Suriya portlarini va Aleksandriyani bombardimon qildi. Misr taslim bo'ldi. Muhammad Ali Misr va Sudan ustidan o'zining merosiy egalik huquqini saqlab qoldi, ammo Krit, Arabiston, Suriya, Falastin va Kilikiyadan ayrildi, sultonga flotini qaytarib berish, armiyasini 18 ming kishigacha qisqartirish, verflar va arsenallarini yo'q qilish, 1838-yilgi ingliz-turk konvensiyasini Misrga ham joriy qilish, ya'ni ingliz tovarlari uchun mamlakatni ochish, sultonga o'lpon to'lash majburiyatlarini oldi. Bu aslida Muhammad Alining barcha rejalari, umrining mazmuniga aylangan ishlarining barbod bo'lishi edi. Misr inqirozining muhim natijasi 1841-yil 13-iyulda Londonda bo'g'ozlar to'g'risida xalqaro konvensiyaning imzolanishi bo'ldi. Bir tomondan Yevropa davlatlari – Angliya, Rossiya, Fransiya, Avstriya va Prussiya, boshqa tomondan – Turkiya Dardanell va Bosfor bo'g'ozlari “Porta tinchlik holatida turgan paytlarda chet el harbiy kemalari uchun doimiy yopiq bo'lishi” to'g'risida konvensiya imzoladilar⁵. Bu bilan Angliya o'zining Rossiya ustidan diplomatik g'alabasini mustahkamladi: bo'g'ozlar rejimi endi Rossiya bilan Turkiyaning ikki tomonlama kelishuvi asosida emas, Qora dengizda hududga ega bo'lmagan davlatlarning ko'p tomonlama konvensiyasi bilan tartibga solinadigan bo'ldi. Yevropa “katta siyosatiga” qaytgan Fransiya Angliya bilan Turkiyaning Rossiyaga qarshi harakatlariga ko'maklasha boshladi.

Misr inqirozi bartaraf qilinib, taxtga bevosita xavf yo'qolganidan keyin turk hukmron doiralarining islohotlarga qiziqishi ham so'ndi. Albatta islohotlar mamlakat ijtimoiy hayotiga ma'lum jonlanish baxsh etdi, xalq ta'limini bir oz yaxshiladi⁶. Ayniqsa diniy maktablar bilan bir qatorda dunyoviy maktablarning ham ochilishi va 1847-yili maorif vazirligining joriy qilinishi islohotlarning muhim jihati bo'ldi. Biroq Tanzimat qonunchilik sohasining faqat yuzaki qisminigina o'zgartirib, davlat va jamiyat tuzilishidagi chuqur nuqsonlarni bartaraf qila olmadi. Otkup tizimi bekor

⁴ Baxromov Z. Tanzimot davrida ta'lim tizimi va uning ahamiyati. — T.: Uzbekiston, 2017.

⁵ Шукурилов И. Танзимот даври ва унинг иқтисодий ислохотлари. — Т.: Фан, 2015.

⁶ Kamilov E. Tanzimot davri islohotlari: ijtimoiy va iqtisodiy muammolar. — T.: Sharq, 2015. — 245-bet

qilinmadi, hayot va mulk daxlsizligi faqat qog'ozdagina qolib ketdi, musulmonlar bilan musulmon bo'lmaganlarning huquqiy tengsizligi saqlanib qoldi. Shu sababli Tanzimatni keng xalq ommasi qo'llab-quvvatlamadi. 1853–1856 yillardagi Qrim urushi Tanzimat islohotlarining davomiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Urush natijasida Rossiya mag'lubiyatga uchragan bo'lsa-da, Turkiya ham mustaqil yutuqlarga erisha olmadi. 1856-yilgi Parij tinchlik shartnomasi Turkiyani Yevropa davlatlarining “kontserti”ga kiritdi, ammo bu ko'rinishda mamlakat G'arb kapitali uchun ochiq bozor maydoniga aylandi. 1856-yil 18-fevralda e'lon qilingan Hatt-i Humoyun esa G'arb davlatlarining bosimi ostida qabul qilindi. U rasmiy jihatdan fuqarolarning teng huquqliligini, sud-adliya tizimida islohotlar o'tkazishni va yangi ma'muriy tartiblarni joriy etishni va'da qilgan bo'lsa-da, amalda bu G'arb kapitalining Turkiyaga erkin kirib kelishiga sharoit yaratdi. Shu yili to'liq ingliz va fransuz kapitaliga asoslangan Usmon banki tashkil etildi. U mamlakatning moliyaviy tizimini nazorat ostiga oldi, milliy iqtisodiy mustaqillikka zarba berdi. Bu davrda qabul qilingan yer kodeksi chet elliklarga Turkiya yerlariga egalik qilish huquqini berdi, temir yo'l konsessiyalari orqali esa G'arb kompaniyalari iqtisodiyotga chuqur kirib bordi. Natijada Usmoniylar imperiyasining tashqi qarzi 1856-yildagi 75 million frankdan 1870-yilga kelib 2,5 milliard frankgacha yetdi. Bu qarz mamlakatni moliyaviy mustamlakaga aylantirdi. Tanzimat islohotlari dastlab xalq orasida umid uyg'otgan bo'lsa-da, keyinchalik ularning natijalari ko'zlangan maqsadni bermadi. Islohotlar yuqoridan, hukmron doiralardan tomonidan amalga oshirilganligi sababli ular xalq ommasining qo'llab-quvvatloviga erisha olmadi. Shunga qaramay, Tanzimat davrida ba'zi ijobiy o'zgarishlar ham yuz berdi. 1847-yilda maorif vazirligi tashkil qilinib, dunyoviy maktablar ochildi, davlat boshqaruvi va adliya tizimi qisman yangilandi. Bu islohotlar keyinchalik Yosh turklar harakati va Islom islohotchiligi g'oyalariga zamin yaratdi. Tanzimat islohotlari Usmoniylar imperiyasining modernizatsiya sari tashlangan ilk qadamlaridan biri bo'ldi. U o'z davri uchun ilg'or tamoyillarni ilgari surgan bo'lsa-da, amalda imperiyaning ichki zaifliklarini bartaraf eta olmadi. Islohotlar G'arb kapitalining kirib kelishiga keng yo'l ochdi, mamlakatni iqtisodiy qaramlik yo'liga olib kirdi. Shunga qaramay, Tanzimat davri Yaqin Sharq tarixida yangi siyosiy tafakkur, ma'muriy tizim va huquqiy yangilanishlar uchun asos bo'ldi. U Usmoniylar imperiyasining so'nggi bosqichlarida vujudga kelgan konstitutsion islohotlar va milliy uyg'onish harakatlari uchun zamin yaratgan, tarixiy ahamiyatga ega davr sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Шухрат Эргашев. Жахон тарихи: янги давр (1800–1918 йиллар). Тошкент: “Ўзбекистон”, 2015.
2. Kamilov E. Tanzimot davri islohotlari: ijtimoiy va iqtisodiy muammolar. — T.: Sharq, 2015



3. Ахмедов И. Танзимот даври ва унинг маданияй-ма'рифий жихатлари. — Т.: Фан, 2021.
4. Вахромов З. Tanzimot davrida ta'lim tizimi va uning ahamiyati. — Т.: Узбекистон, 2017.
5. Шукурилов И. Танзимот даври ва унинг иқтисодий ислохотлари. — Т.: Фан, 2015.
6. Kamilov E. Tanzimot davri islohotlari: ijtimoiy va iqtisodiy muammolar. — Т.: Sharq, 2015.
7. Yıldız A. Tanzimot dönemi Osmanlı toplumunda değişim ve dönüşüm. — İstanbul: Tarih Vakfı Yayınları, 2016.
8. Akbarov S. Tanzimot davri: iqtisodiy va siyosiy asosi. — Т.: Fan va texnologiya, 2019.